



RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTRISH SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Sheraliyev Shahriyor Baxtiyor o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

2-kurs magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda sug'urta bozorining holati va unda mavjud muammolar, shuningdek ushbu bozorni rivojlantrishda sug'urta munosabatlarini erkinlashtirishning zarurligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta faoliyati, sug'urta bozori, ustav kapitali, minimal talab, sug'urta nazorati, sug'urta bozorini rivojlantrish agentligi.

Sug'urta insoniyat tarixining tadrijiy rivojlanishi bosqichlarida moliyaviy munosabatlarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida iqtisodiyotga ta'sir etuvchi muhim omil bo'lib kelgan. Hozirgi globallashuv jarayonida sug'urta bozorining innovatsion rivojlanishi jadal o'zgarishlar qamrovida kechayotganligi mazkur institut faoliyatini nazariy-amaliy tadqiq etish dolzarb ekanligini anglatadi. Sug'urta bozori har qanday mamlakat iqtisodiyotining asosiy segmenti hisoblanadi, ayni vaqtda, bevosita uning ravnaqiga ham xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda qayd etish lozimki, sug'urta faoliyati o'ziga xos tarzda shakllangan va keng qo'llanilayotgan ijtimoiy hodisa bo'lib, barqarorlik omili sanaladi. Mamalakat sug'urta bozori rivojini prognozlash o'z navbatida, biznes sub'ektlari va aholi manfaatlari himoyasini kafolatli darajada ta'minlash instituti sifatida sug'urta faoliyatini rivojlantrish yo'nalishlarini tadqiq etish zaruratini keltirib chiqardi. Sug'urta bozori mavjud bo'lishining asosiy sharti, sug'urta xizmatlariga bo'lган talabning mavjud bo'lishi va sug'urtalovchilar bu talabni qondirish imkoniyatiga ega bo'lishlari bilan xarakterlanadi. Sug'urta bozori sub'ektlarning mustaqil bo'lishini, ularning o'zaro teng imkoniyatlar bilan raqobat olib borishi, asosiy munosabat sug'urta xizmatlarining oldi-sotdisi bo'yicha, ya'ni sug'urta xizmatlarini sotib olish gorizontal hamda vertikal rivojlanish aloqalarini olib borish bilan ta'riflanib kelinadi. Bizningcha, sug'urta bozorini nazariy jihatdan tadqiq etishda sug'urta va sug'urta faoliyatiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Ma'lumki, sug'urta fuqarolar va korxonalarining mulkiy va shaxsiy nomulkiy manfaatlarni himoya qiluvchisamarali vosita sifatida insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo'lган. Sug'urta munosabatlarida avval sug'urta zararini ishtirokchilar o'rtasida natural tarzda taqsimlash amalga oshirilar edi. Keyinchalik tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan sug'urta munosabatlari ham pul shaklida amalga oshirila boshlandi. Zararlarni pul shaklida qoplanishi eng avvalo o'zaro sug'urtalash uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bugungi kunda jahon bozori kon'yukturasidagi keskin o'zgarishlar, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantrish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqdaki, buni e'tiborga olgan holda mamlakatimizda qabul qilingan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantrishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining uchinchi yo'nalishida makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishda bir necha vazifalar belgilanib olindi. Shulardan biri sug'urta va



lizing hamda boshqa moliyaviy xizmatlar hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobidan kengaytirish, shuningdek, kapitalni jalb qilish hamda moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirishdir. Mamlakatimizda bosqichma - bosqich bozor munosabatlari shakllanishi va rivojlanishi, iqtisodiyot subyektlarining yuksak darajadagi iqtisodiy mustaqilligi, erkinligi darajasi ortib borayotgan jarayonda doimo risklar mavjud bo‘lishi kuzatiladi. Ular manfaatlariga zarar keltirishi mumkin bo‘lgan va doimiy takrorlanib turadigan risklarni qayta taqsimlash, ya’ni o‘ziga xos bo‘lgan maxsus xizmat bilan sug‘urta shug‘ullanadi. Sug‘urta xizmati bahosining yuqori chegarasi talab hajmi va bank foizining miqdori bilan aniqlanadi. Sug‘urta xizmatining ma’lum bir turiga yetarli darajada talab mavjud bo‘lganda, sug‘urta tashkiloti mazkur xizmat bahosini yuqori darajada saqlab turishi mumkin. Lekin, vaqt o‘tishi bilan bozorda sug‘urta xizmati ko‘rsatishturlarining ko‘payishi bilan, o‘z-o‘zidan tarif stavkalarini kamayadi.

1-jadval

2019-2022 yillarda O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini jadal rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	2018 y. (fakt)	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	O’sishi, barobar
1.	Sug‘urta xizmatlarining YAIMdagि ulushi (<i>foiz</i>)	0,4	0,5	0,6	0,7	0,8	2
2.	Aholi jon boshiga sug‘urta mukofotining miqdori (<i>min gso ‘m</i>)	50,0	65,0	88,0	114,0	148,0	3
3.	Jami sug‘urta mukofotlarining hajmi (<i>trln so ‘m</i>)	1,6	2,1	2,9	3,8	5,2	3,3
4.	Sug‘urta tashkilotlarining jami ustav kapitali (<i>trln so ‘m</i>)	0,5	0,8	0,9	1,0	1,2	2,4
5.	Sug‘urta tashkilotlarining jami aktivlari (<i>trln so ‘m</i>)	2,5	3,0	3,6	4,3	5,2	2,1
6.	Sug‘urta tashkilotlarining jami investitsiyalari (<i>trln so ‘m</i>)	2,0	2,5	3,3	4,1	5,3	2,7
7.	Sug‘urta xizmatlari turlarining soni (<i>birlilik</i>)	105	115	135	155	175	1,7
8.	Hududiy bo‘linmalar soni (<i>birlilik</i>)	1 450	1 500	1 580	1 660	1 740	1,2

Mamlakatimizda sug‘urta bozorini rivojlantirish masalalari o‘rganish natijasida quyidagi xulosalar shakllandi: Birinchidan, bugungi kunda mamlakatimiz milliy sug‘urta bozori nisbatan tez rivojlanayotgan bo‘lsada, bugungi kun jahon talablariga to‘liq javob bera olmaydi. Ikkinchidan, sug‘urta xizmatidan foydalanayotgan va foydalanishi mumkin



bo‘lgan aholining aksariyat qismi, sug‘urta haqida to‘liq ma’lumotga ega emas. Holbuki, bu sug‘urta turiga talabning ortishi sug‘urtalanuvchi va sug‘urtalanuvchiga moliyaviy holatini yaxshilashda o‘zining salmoqli xissasini qo‘shadi.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida, quyidagi takliflarni berish mumkin: Birinchidan mamlakatimiz sug‘urta bozorini rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetkazishning eng muhim va asosiy omillaridan biri bu, O‘zbekistonda xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda o‘zaro sug‘urtani joriy etishdir va bunda davlatning tashabbuskorligidan foydalanish sug‘urta sohasidagi bugungi kunning dolzarb masalasidir. Mamlakatda o‘zaro sug‘urtani joriy etish uchun avvalambor uning huquqiy ta’minotini yo‘lga qo‘yish, o‘zaro sug‘urtani rivojlantirish maqsadida ushbu sohaga taalluqli imtiyoz va preferensiyalarni taqdim etish zarur deb hisoblaymiz. Shunday holatda o‘zaro sug‘urta, sug‘urtaning alohida shakli sifatida tijorat sug‘urtasi bilan parallel ravishda rivojlanadi va ko‘p sonli potensial sug‘urtalanuvchilarni sug‘urtaga jalb etish barobarida fuqarolarning moddiy farovonligini oshishida, ularning tadbirkorlik faoliyatini bilan bog‘liq tavakkalchiliklarini kafolatlashda, korxona va tashkilotlarning barqaror faoliyat ko‘rsatishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, sug‘urta faoliyatini rivojlanishi uchun sug‘urta xizmatlarini keng ko‘lamda reklama qilish samarali natija beradi. Eng ommabop bo‘lgan ijtimoiy tarmoqlar: telegram, instagram va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda sug‘urta xizmatlari va uning afzalliklari haqida ma’lumot berib turish. Misol uchun sug‘urta xizmatlari bo‘yicha telegramda bir kanal ochib, bu haqida boshqa kanallarga ma’lumot tashlash orqali, aholini sug‘urta kanaliga a’zo qilish va sug‘urta faoliyatining yangiliklaridan muntazam ravishda xabardor qilib turish mumkin.

Ya’ni, aholining sug‘urtaga bo‘lgan ishonchini ortishini ta’minlash maqsadida sug‘urtaga nisbatan aholining huquqiy savodxonligini oshirish, ya’ni sug‘urta to‘g‘risida qabul qilingan qonun, qarorlar to‘g‘risida va sug‘urta faoliyati qonun bilan himoyalanishi to‘g‘risida mijozlarga muntazam ravishda ma’lumotlar berib borish mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tukhtabaev, J. S., Rakhmonov, A. N., Uktamov, K. F., Umurzakova, N. M., & Ilxomovich, R. (2021). Econometric assessment of labor productivity in ensuring the economic security of industrial enterprises. International Journal of Modern Agriculture, 10(1), 971-980.
2. Укташов, Х. Ф. (2017). Корхоналарнинг иқтисодий хавфсизлик тизимини ташкил этишнинг назарий асослари “Ўзбекистон иқтисодиётининг инновацион ривожланиши доирасида ташки иқтисодий фаолиятни давлат томонидан тартибга солишнинг долзарб муаммолари” мавзусида республика илмий-назарий конференцияси 2017 йил 14-декабр, Тошкент ш. Тошкент давлат иқтисодиёт университети.
3. Sicheva A.V. Architecturally landscape: Issues of protection and formation. 2nd edition rev . and add. - Minsk: Higher . wk . 1982.
4. Укташов, Х. Ф. (2020). COVID-19 пандемияси шароитида ахолини иш билан таъминлаш йўллари.“



5. Baratova, D., Khasanov, K., Musakhonzoda, I., Abdumuratov, S., & Uktamov, K. (2021). The impact of the coronavirus pandemic on the insurance market of Uzbekistan and ways to develop funded life insurance. In E3S Web of Conferences (Vol. 296, p. 06028). EDP Sciences.
6. Укта́мов, Х. Ф. (2018). Корхоналар иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг илмий-назарий жихатлари. Бизнес-Эксперт журнали, 7.
7. Tukhtabaev, J., Razakova, B., & Uktamov, H. (2020). The role of the digital economy in ensuring the economic security of the country. Scienceproblems. uz, 1 (1), 7-7.
8. Baratova, D. A., Khasanov, K. N., Musakhonzoda, I. S. O., Tukhtarova, M. Y. Q., & Uktamov, K. F. (2021). Econometric Assessment of Factors Affecting the Development of Life Insurance in Uzbekistan. REVISTA GEINTEC-GESTAO INOVACAO E TECNOLOGIAS, 11(2), 1123-1138.
9. Nazarova, S. A., Mirzarahimov, B. H., Narmanov, U. A., Ortikov, O. H., & Uktamov, K. F. (2021). The Role Of Uzbek Tourism Culture And Its Historical And Cultural Transformation Processes In Economic Development. Int. J. Of Aquatic Science, 12(3), 2776-2785.
10. Akbarovich Yadgarov, A., Khotamov, I., Fakhridinovich Uktamov, K., Fazliddinovich Mahmudov, M., Turgunovich Yuldashev, G., & Ravshanbek Dushamboevich, N. (2021). Prospects for the Development of Agricultural Insurance System. Alinteri Journal of Agriculture Sciences, 36(1), 602-608.
11. Укта́мов, Х. (2020). Способы обеспечения экономической безопасности промышленных предприятий. Общество и инновации, 1(1/S), 405-412.
12. Dwijendra, N. K. A., Jalil, A. T., Abed, A. M., Bashar, B. S., Al-Nussairi, A. K. J., Hammid, A. T., ... & Uktamov, K. F. (2022). Improving the transition capability of the low-voltage wind turbine in the sub-synchronous state using a fuzzy controller. Clean Energy, 6(4), 682-692.
13. Salah Aldeen, O. D. A., Mahmoud, M. Z., Majdi, H. S., Mutlak, D. A., Fakhridinovich Uktamov, K., & Kianfar, E. (2022). Investigation of Effective Parameters Ce and Zr in the Synthesis of H-ZSM-5 and SAPO-34 on the Production of Light Olefins from Naphtha. *Advances in Materials Science and Engineering*, 2022, 1-22.
14. Smaisim, G. F., Mohammed, D. B., Abdulhadi, A. M., Uktamov, K. F., Alsultany, F. H., Izzat, S. E., ... & Kianfar, E. (2022). Nanofluids: properties and applications. *Journal of Sol-Gel Science and Technology*, 104(1), 1-35.
15. Uktamov, X. (2020). Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда дехқон хўжаликларининг ўрни. *Архив научных исследований*, 34.